



ALOHIDA TALIM EHTIYOJLARI BO'LGAN BOLALARNI IJTIMOIIY HAYOTGA TAYYORLASH

Ganiyeva Dilafruz Rajabboyevna

*Navoiy viloyati, Karmana tumani 25-sonli Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan kar
bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab internati tarbiyachisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. Unda bolalarning ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil hayotga tayyorlash, kasb-hunarga yo'naltirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Alohida ta'lim ehtiyojlari, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy moslashuv, ko'nikma, kasb-hunarga yo'naltirish, pedagogik yondashuv, ijtimoiy integratsiya.

Bugungi kunda Respublikamiz miqiyosida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Barcha islohotlarning zahirida, eng avvalo yosh avlodni barkamol shaxs bo'lib yetishishi, hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishi hamda dunyo arenalarini zabt eta oladigan farzandlarni tarbiyalash asosiy dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa nogiron, rivojlanishda nuqsoni bo'lgan, ota-ona qaramog'isiz qolgan yetim bolalarni ijtimoiy himoya qilish har doim jamiyatning dolzarb vazifasidir. Ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida Respublikamizda nuqsoni bo'lgan bolalarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, zarur shart-sharoilar yaratish, turmush faoliyatidagi cheklanishlarni bartaraf etish hamda ular uchun ta'limni tashkil etish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda alohida ta'limga muhtoj bolalarga bo'lgan alohida e'tibor qonun, farmonvahuquqiy-normativ hujjatlarda aks etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishkonsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistondainklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishtizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilashmaqsadida bir qator ishlar amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tizimi – bu nafaqat ta'lim jarayonining, balki jamiyatning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan soha hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimi va uning boshqaruvi jarayonlari maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yanada moslashgan va samarasiz tizimdan samarali tizimga o'tishni talab qilmoqda. Ushbu bolalarga ta'lim berish jarayonida ko'plab muammolar va qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ularni hal etishda yangi pedagogik yondashuvlar, metodlar va texnologiyalarni joriy etish zarurati tug'ilmoqda. Maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim tizimi uchun maxsus yondashuv va metodlarni taqdim etadi. Ularning ta'lim olish imkoniyatlari va ehtiyojlari boshqa



o'quvchilarnikidan farq qiladi, shuning uchun o'quv jarayoni individual yondashuvni talab qiladi. Bu, o'z navbatida, ta'lim tizimining boshqaruvida yangi usullarni ishlab chiqishni zarur qiladi. Maxsus ehtiyojlarga ega bolalarning ta'limi nafaqat akademik bilimlar, balki ularning ijtimoiy, hissiy va psixologik rivojlanishini ham o'z ichiga oladi

Alohida yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda orqali bolalarning asosiy shaxsiy sifatlaridan xarakter, irodani tarbiyalab borish mumkin. Bolalar ijtimoiy tarbiya muassasalari tarmog'ining kengayishi va davlat tomonidan oilaga ko'rsatiladigan xilma-xil yordam, oilani tarbiyaviy ishdan ozod qilishini anglatmaydi. Bolalar tarbiyasida ota-onalar ishtiroki borgan sari ortib boradi. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida otaonalar tarbiya masalalariga amaliy qiziqish bildirib, o'zlarining mamlakat va xalq oldida ijtimoiy va fuqorolik burchlarini chuqurroq anglamoqdalar.

Birgalikda olib borilgan faoliyat davomida sheriklarining o'zaro muloqotga qiziqishni aqli zaif o'quvchilarning keyingi bosqichga o'qishga imkoniyat yaratadi: muloqotning ish yuzasidan bo'lgan ko'rinishi shaxsiy ish muloqotiga aylanishiga shart - sharoit tug'iladi.

O'zi haqidagi tasavvurlarni aniqlash, mustahkamlash va kengaytirish o'z tashqi ko'rinishining xarakterli belgilarini ajratish o'z familiyasini bilish va aytish;

o'z oilasi haqida(oilasining familiyasini bilish, ota - onasi kasbini bilish); kundalik muloqotdagi yaqin kishilar haqida;

sinfidagi tengdoshlari haqida (ularning ism - sharifini bilish, tashqi ko'rinishidagi xarakterli belgilarni ajratish);

maktab xodimlari haqida o'qituvchini ismi va sharifi bilan aytish;

defektolog, tarbiyachi, xamshirani, musiqa rahbarini ismi va sharifini aytish;

ularning faoliyatini kasbiga bog'lab aytib berish.

Kundalik muloqotda yaqin bo'lgan kishilarning o'zaro munosabatlari haqida tasavvurlarini shakllantirish (oilaga a'zolariga g'amxo'rlik qilish, tengdoshlari bilan hamkorlikda faoliyat yuritish, jamoa bilan ishlashda, o'z xarakatlarini tengdoshlari xarakati bilan muvofiqlashtirish; o'z hulqini pedagog talabiga bo'ysindirishga o'rgatish).

Inson tashqi ko'rinishi haqidagi ongli tasavvur shakllantirish bosqichida uni maqsadga yo'naltirilgan holda idrok qilishga ahamiyat beriladi. Bunda ko'zgu va suratlar (bolalarning o'zlari, tengdoshlari, qarindoshlari, kundalik muloqotda yaqin kishilari)dan keng qo'llaniladi. Bu bosqichda insonlar orasidagi o'zaro munosabatlar ahloqiy normalar va inson xis - tuyg'ulari bilan bog'liq ijtimoiy va emotsional tajribani yig'ish, umulashtirish va mustahkamlashga yo'naltiriladi. Hissiy qulaylik yaratilishi u o'quvchilarning o'zaro munosabatlariga ijobiy ta'sir o'tkazib, ularning ahloqiy rivojlanishiga yordam beradi. Tarbiyalanuvchilarda hamdo'stlik, ijtimoiy xulq va mehrli o'zaro munosabatlar shakllanadi. Aqli zaif o'quvchilarda ijtimoiy hodisalar haqidagi bilim va tasavvurlar o'z - o'zidan paydo bo'lmaydi. Ular o'quvchini atrof olam bilan o'zaro faol aloqasi asosida shakllanadi. Birgalikdagi faoliyat jarayonida kattalar



bilan muloqot qilish o'quvchilar nutqida qayd qilingan hissiy hayotiy tajribalar boyitish natijasida shakllanadi. Ijtimoiy hodisalar to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanganlik darjasi o'quvchilar o'yinida jamoaning o'zaro munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash – bu ularning jamiyatda mustaqil yashashi, samarali muloqot qilishi, mehnat faoliyatida ishtirok etishi hamda o'z huquq va majburiyatlarini anglab, ulardan to'g'ri foydalanishini ta'minlashga qaratilgan muhim pedagogik jarayondir. Bugungi kunda inklyuziv ta'lim tamoyillari asosida har bir bolaning individual xususiyatlari, rivojlanish darajasi va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur jarayonda eng avvalo bolalarning ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ularni tengdoshlari va kattalar bilan to'g'ri muloqot qilishga, o'z fikrini erkin ifodalashga, jamoa qoidalariga rioya etishga o'rgatish ijtimoiy moslashuvning asosini tashkil etadi. Shuningdek, mustaqil hayot ko'nikmalarini shakllantirish – o'z-o'ziga xizmat qilish, kundalik turmush vazifalarini bajarish, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish, vaqtni to'g'ri taqsimlash kabi malakalarni rivojlantirish orqali bolalarda mustaqillik hissi mustahkamlanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kasb-hunarga yo'naltirish ham ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash, mos kasb turlarini tavsiya etish, amaliy mashg'ulotlar orqali mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish kelajakda jamiyatda munosib o'rin egallashiga yordam beradi. Bu jarayonda pedagoglar, psixologlar va ota-onalar hamkorligi alohida ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida qulay va to'siqsiz muhit yaratish, moslashtirilgan o'quv dasturlarini joriy etish hamda individual yondashuvni ta'minlash orqali har bir bola uchun teng imkoniyatlar yaratiladi. Xulosa qilib aytganda, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash uzluksiz, tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanadatakomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4860-sonli qaror
2. Murodov, B. "Maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim tizimi" – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi, 2022. – bet. 56-63.
3. Tursunova, N. "Pedagogik psixologiya: Maxsus ta'lim ehtiyojlari" – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2020. – bet. 123-130.
4. Asimov, A. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun metodik qo'llanma" – Buxoro: Buxoro davlat pedagogika instituti, 2021. – bet. 89-95.



5. Karimov, K. "Ta'lim tizimida inklyuziv yondashuv" – Tashkent: "Fan va Texnologiya" nashriyoti, 2019. – bet. 45-49.